


**“Qurilish materiallari sanoati” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Shahar havosidagi zaharli gazlarni parchalovchi innovatsion fotokatalitik fasad bo‘yoqlari va suvoq qorishmalari texnologiyasini ishlab chiqish  	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: yo‘l harakati og‘ir bo‘lgan shaharlarda havoni azot oksidi, uchuvchi organik birikmalar, PM2.5 va boshqa ifloslantiruvchi moddalardan tozalash uchun qurilish uchun fotokatalitik materiallar olishning yangi kompozitsiyalari va texnologiyalarini ishlab chiqiladi; quyosh nuri ta’sirida ifloslantiruvchi moddalarning fotokatalitik parchalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. laboratoriya va real sharoitlarda havoni tozalash samaradorligini eksperimental fotokatalitik faollik, fizik-mexanik xususiyatlar tekshiriladi; qurilishda fotokatalitik materiallardan foydalangan holda ob’ektlarni loyihalash va ta’mirlash jarayondan foydalanishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholanadi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. “Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida yaratilgan materiallar yangi qurilgan 1 ta noturar joy bino fasadiga qo‘llaniladi. Amalga oshirilgan sinovlar natijasida materialning o‘z-o‘zini tozalash, havo sifatini yaxshilash hamda energiya tejamkorlik samaradorligi haqiqiy ekspluatatsiya sharoitida baholanadi. Ilmiy natijalarni chop etish. “Ilmiy maqolalar xalqaro e’tirof etilgan Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallarda hamda OAK ro‘yxatidagi respublika va xalqaro ilmiy nashrlarda hamda konferensiya to‘plamlarida chop etiladi”. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi korxonaning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.